



THE PHILOSOPHY OF SCIENCE AND ENLIGHTENMENT OF EASTERN THINKERS AND ITS SIGNIFICANCE IN SOCIETY

Zafarbek Ataboyevich Karimov

Associate Professor at Urgench State Pedagogical Institute

kzafarbek727@gmail.com

Khorezm, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Philosophy of education, theoretical and methodological foundations, philosophy of the Renaissance, intellectual potential, moral education, Eastern philosophy, Bayt al-Hikma, Central Asian Renaissance, medieval education, philosophical approaches of the 20th–21st centuries (pragmatism, existentialism, postmodernism), professional training, global issues and education.

Received: 19.09.25

Accepted: 20.09.25

Published: 21.09.25

Abstract: This article discusses the theoretical and methodological foundations of the philosophy of education, its historical roots, various approaches, and its significance in practice. The philosophical perspectives of Renaissance scholars - al-Khwarizmi, Abu Nasr al-Farabi, Abu Rayhan al-Biruni, and Abu Ali Ibn Sina - on education are analyzed. In addition, attention is given to the development of natural-philosophical and social sciences, the establishment of scientific centers and academies, and their role in the progress of society.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING ILM–MA’RIFAT FALSAFASI VA UNING JAMIYATDAGI AHAMIYATI

Zafarbek Ataboyevich Karimov

Urganch davlat pedagogika instituti dotsenti

kzafarbek727@gmail.com

Xorazm, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: taʼlim falsafasi, nazariy va metodologik asoslar, uygʻonish davri falsafasi, aqliy salohiyat, axloqiy tarbiya, sharq falsafasi, bayt ul-hikma, markaziy osiyo uygʻonish davri, oʻrta asr taʼlimi, XX–XXI asr falsafiy yondashuvlari (pragmatizm, ekzistentsializm, postmodern), kasbiy tayyorgarlik, global muammolar va taʼlim.

Annotatsiya: Ushbu maqolada taʼlim falsafasining nazariy va metodologik asoslari, uning tarixiy ildizlari hamda yondashuvlari va amaliyotdagi ahamiyati muhokama qilinadi. Uygʻonish davri allomalari Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sinolarning taʼlimga munosabati falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, tabiiy–falsafiy va ijtimoiy

fanlarning rivojlanishi, ilmiy markazlar va akademiyalar tashkil etilishi, ularning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'рни haqida so'z yuritiladi.

ФИЛОСОФИЯ НАУКИ И ПРОСВЕЩЕНИЯ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ В ОБЩЕСТВЕ

Зафарбек Атабоевич Каримов

Доцент Урганчского государственного педагогического института

kzafarbek727@gmail.com

Хорезм, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: философия образования, теоретические и методологические основы, философия эпохи Возрождения, интеллектуальный потенциал, нравственное воспитание, восточная философия, Байт аль-Хикма, эпоха Возрождения Центральной Азии, средневековое образование, философские подходы XX–XXI веков (прагматизм, экзистенциализм, постмодерн), профессиональная подготовка, глобальные проблемы и образование.	Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы философии образования, её исторические корни, подходы и значение в практике. Философскому анализу подвергается отношение мыслителей эпохи Возрождения - Мусы аль-Хорезми, Абу Насра Фараби, Абу Райхана Беруни и Абу Али ибн Сины - к вопросам образования. Кроме того, освещается развитие естественно-философских и социальных наук, создание научных центров и академий, а также их роль в общественном прогрессе.
--	---

Kirish. Markaziy Osiyo, ayniqsa O'zbekiston hududi, tarixan butun islom dunyosiga o'zining yuksak ilmiy–ma'naviy merosi bilan tanilgan ulug' allomalarni yetishtirib bergan. Ular nafaqat mintaqaviy fan asoslarini yaratgan, balki o'z ilmiy faoliyati orqali jahon ilm–fan taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shganlar. Ushbu mutafakkirlarning ilmiy kashfiyotlari va nazariy qarashlari umuminsoniy ilm–fan va madaniyat xazinasining bebaho qismini tashkil etadi. Sharq falsafasining rivojlanishida, ayniqsa, ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvufiy qarashlar muhim o'rin tutgan bo'lib, komil inson g'oyasi, nafsni tiyish, bag'rikenglik, diniy–ma'rifiy donishmandlik kabi konsepsiyalar Muso al–Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino kabi buyuk allomalarning ilmiy–falsafiy qarashlarida chuqur ifodasini topgan. Ularning ilgari surgan nazariy asoslari musulmon Sharqida fan va tafakkur rivojiga xizmat qilgan, shu bilan birga, jahon ilmiy merosining shakllanishiga ham ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Ma'lumki, VIII–IX asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari arab xalifaligi tarkibiga kirgan bo'lib, Bag'dod va Damashq kabi markazlarda ilm–fan va madaniyat gullab–yashnagan. IX asr boshlarida Bag'dodda "Bayt al–Hikma" (Bilimlar uyi), Xorazmda esa "Ma'mun akademiyasi" tashkil etilgan.

Bu ilmiy markazlarda turli hududlardan taklif etilgan olimlar falsafa, matematika, astronomiya va boshqa fanlarni chuqur o'rganganlar. Aynan shu davrda al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino singari allomalar o'z falsafa maktablarini shakllantirib, fanning turli yo'nalishlariga asos solganlar. Bag'dodda tashkil etilgan "Bayt al-Hikma" ilmiy muassasasiga Muhammad al-Xorazmiy rahbarlik qilgani tarixiy manbalarda qayd etilgan bo'lib, bu holat uning ilm-fandagi nufuzini yana bir bor tasdiqlaydi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqlarida doimo xalqimiz boy madaniy merosini izchillik bilan o'rganishga, undan yoshlar ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirishda foydalanishga da'vat etib kelmoqdalar. "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun ajdodlarimizning madaniy-ma'naviy boyligini chuqur va har tomonlama o'rganishimiz darkor."[1]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Professor N.A. Shermuxammedova o'zining "Falsafa" nomli darsligida ular yaratgan asarlar ahamiyatiga ko'ra o'sha davrni Markaziy Osiyo uyg'onish davri deb nomlab, Uyg'onish davri fani va madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini quyidagilardan iborat deb ko'rsatib o'tadi:

1. Barcha odamlarni ma'rifatli qilishga intilish, bu yo'lda o'tmish merosidan va qo'shni mamlakatlarning fan, madaniyat yutuqlaridan foydalanish, tabiiy-falsafiy va ijtimoiy fanlarni rivojlantirishi.

2. Tabiatni o'rganish, tabiiy-ilmiy bilimlarni oqilonalikka tayanib rivojlantirish, aqlning kuchiga ishonish, asosiy e'tiborni haqiqatni bilishga qaratish, haqiqatni inson bilimining negizi deb bilishi.

3. Insonga xos tabiiy, badiiy, ma'naviy fazilatlarni yuksaltirish, insonparvarlikni ulug'lash, barkamol avlodni tarbiyalashda oliy ma'naviy qonunlarga rioya qilishi.

4. Universalizm – borliq va ijtimoiy hayotning barcha muammolariga qiziqish, bu davr madaniyatining muhim jihatlaridir.[2].

Hiqoqatda ham uyg'onish davri fan va madaniyatining olimlari va mutafakkirlari inson bilimining kengayishini jamiyat taraqqiyotining bosh omili deb bilganlar. Shu maqsadda ular o'tmish merosini – qadimgi Yunoniston va Rim ilmiy-falsafiy yutuqlarini, Sharq allomalari asarlarini qayta o'rganib, zamon talablari asosida talqin qildilar. Shuningdek, qo'shni mamlakatlarning fan va madaniyatdagi ilg'or tajribalarini o'zlashtirishga katta e'tibor berildi. Bu jarayonda tabiiy-falsafiy va ijtimoiy fanlarning rivojlanishi, ilmiy markazlar va akademiyalar tashkil etilishi muhim rol o'ynadi. Uyg'onish davrida aql-idrokning kuchiga bo'lgan ishonch keskin oshdi. Haqiqatni bilish, uning sabablari va qonuniyatlarini anglash ilmiy faoliyatning markaziga aylandi. Masalan, tabiatshunoslik, astronomiya, anatomiya va boshqa tabiiy-ilmiy

yoʻnalishlarda yangi kashfiyotlar qilinib, oʻsha davr dunyoqarashini tubdan oʻzgartirdi. Haqiqat inson bilishining poydevori sifatida eʼtirof etilib, barcha ilmiy izlanishlar aynan unga erishishga qaratildi.

Bu davr mutafakkirlari barkamol avlodni tarbiyalashda oliy maʼnaviy qonun va qadriyatlarga amal qilishni zarur deb bildilar. Sanʼat, adabiyot, musiqa va boshqa madaniy yoʻnalishlarda inson ruhiyatini uygʻotish, goʻzallik va ezgulik gʻoyalari targʻib qilish ustuvor yoʻnalishga aylandi. Tarbiya jarayonida esa faqat bilim berish emas, balki yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirishga katta ahamiyat qaratildi. Bu davr olimlari va ijodkorlari bir soha doirasida emas, balki koʻp yoʻnalishda faoliyat yuritdilar. Masalan, Leonardo da Vinchi rassom boʻlishi bilan birga muhandis, anatomiya olimi, matematik va faylasuf sifatida ham tanilgan. Universalizm – ilm–fan, sanʼat va falsafaning oʻzaro uzviy bogʻliqligini koʻrsatib, insonning intellektual salohiyatini kengaytirishga xizmat qilgan. Bu yondashuv har bir ilmiy yoki badiiy faoliyatning jamiyat hayotidagi oʻrnini toʻliq tushunish imkonini yaratdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Sharq mutafakkirlarining ilm–maʼrifat falsafasi va uning jamiyatdagi ahamiyati mavzusida olib boriladigan tadqiqotning metodologiyasi, asosan, ijtimoiy fanlar doirasida qoʻllaniladigan turli metodlarni oʻz ichiga oladi. Tarixiylik, taqqoslash, analiz qilish va umumiy emperik metodlar orqali ilmiy maqola ishlangan.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotda sharq mutafakkirlarining ilm–maʼrifat falsafasi va uning jamiyatdagi ahamiyati uning nazariy va metodologik asoslarini tahlil qilingan. Ushbu bosqichda, ayniqsa, tarixiy va zamonaviy falsafiy qarashlar, estetika va axloqiyotga oid adabiyotlar oʻrganildi. Muhammad al–Gʻazzoliy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Beruniy, Muhammad Al-Xorazmiy kabi allomalarning taʼlim falsafasi va uning nazariy asoslari haqidagi qarashlari asosida nazariy tahlil oʻtkazildi. Bu yondashuv yordamida Taʼlim falsafasi va uning nazariy va metodologik asoslari va ularning jamiyatdagi oʻrni va ahamiyati aniqlandi.

Al–Gʻazzoliy “taʼlimni nafaqat bilim olish, balki nafsni tarbiyalash, axloqni poklash, qalbni nurlantirish yoʻli deb hisoblagan”. Uning “Ihyo uluum ad–din” asarida taʼlim va maʼnaviyat aloqasi keng yoritilgan. Al–Gʻazzoliy oʻz davrining mujaddidi boʻlib, musulmon urf–odatlariga koʻra, bu islom taqvimining har bir asrning boshida islomni qayta tiklash, uni begona predmetlardan tozalash va uning pokligini tiklash uchun xizmat qilgan shaxslarga nisbatan ishlatilgan. Shu boisdan ham Gʻazzoliy oʻz asarlarida islom ilohiyotini falsafiy jihatdan asoslash bilan birgalikda ilm–maʼrifat, taʼlim–tarbiya masalariga alohida eʼtibor bergan. Gʻazzoliy aql bilan dunyoni anglashni, islomiy taʼlim–tarbiyani esa ruhiy, jismoniy harakatlar – toat–ibodatlar orqali anglash lozim, deb taʼkidlaydi[3].

Muhammad al–Gʻazzoliyning ilmiy merosidagi maʼnaviy–axloqiy qarashlari tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Asarlarda axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy meʼyorlar bilan

birgalikda islomiy ta'lim–tarbiya juda chiroyli bayon etilganki, uni o'rgangan har bir yosh avlod ajodolarva mos voris bo'lib yetishadi. Ta'lim va–tarbiya azaldan yoshlarni tarbiyalashda muhim rol o'ynab kelgan diniy kitoblardan bo'lmish “Quroni karim”, payg'ambarimizning o'gitlari, hadislar, G'azzoliy singari allomalar yaratgan asarlar ta'lim–tarbiya manba sifatida xizmat qiladi. IX–XII asrlardan boshlab Imom Buxoriy, Imom at–Termiziylardan Qu'roni karim tavsiri, hadislarining mazmun mohiyatini anglagan holda o'rgashishga harakat qilganlar, keyinchalik G'azzoliy ham o'zining asarlarida islomiy ta'limtarbiyaning muhim jihatlarini ochib berib, dunyoni diniy va ilmiy jihatdan anglashga, tarbiyaviy jihatdan avlodlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslagan.

G'azzoliy “Haqiqatga eltuvchi yo'l” nomli asarida o'zini ilmga bag'ishlagan haqiqat tolibi sifatida o'z hayot hikoyasini bayon etadi va barcha toliblariga o'z yo'lidan adashmaslikni hamda zamonning alodovlariga aldab qolmaslikni, hushyor bo'lishni maslahat bergan. G'azzoliy Qur'on va sunnatning intellektual va ma'naviy dunyosida yashagan. U o'z hissalarini bilan din olimlari jamiyatini boyitdi. G'azzoliydagi ilmning turli sohalarini birlashtirishdagi qobiliyati faqatgina uning shaxsiy hunarining emas, ayni paytda bir faylasuf va olim sifatida ulg'ayishiga imkon bergan intellektual–ma'naviy iqlimning ham ta'siridir. G'azzoliy ilmni eng ustun fazilat deb hisoblaydi. U ilmga ega bo'lganlar katta hurmat ko'rgan madaniy muhitda yetishgan. Shubhasiz, bu holat Qur'onning ilmga bergan ahamiyatidan kelib chiqadi. G'azzoliyning asarlarining asosida Qur'oni tavsiri bayon etilgan. Qur'onda ilm so'zi 750 dan ortiq joyda zikr etilgan. Ilm ma'lumotdan tashqari, yana ham keng va asosli tushunchaga yo'naltiradi. U ham bo'lsa, oqil insonlardan mag'zini chaqishi talab qilingan “ishorat” (oyat) sifatida xizmat qiladi, faqatgina insonning dunyoni anglash ongini kengaytirishini maqsad qilmaydi, ayni paytda unga ahloqiy mas'uliyat va bir ma'naviy tuyg'uning shakllanishida yordam beradi. Haqiqiy ilm insonni komillikka yetaklaydi, chunki ilm har bir borliqning manbaiga eltuvchi yo'ldir. Shu nuqtai nazardan qarab, G'azzoliyning ma'naviy axloqiy qarashlari bo'lajak tarbiyachilarnigina emas, jamiyatning barcha qatlamlarini axloqiy jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi, qolaversa jamiyatni kamolotga chorlab ma'naviy huzur baxsh etadi. G'azzoliyning ilmiy va ma'naviy–ahloqiy qarashlari o'z davrida madrasalarda joriy etilgan va ilmi toliblarga o'rgatila boshlangan. Madrasalar butun islom olamida oliy ta'lim maskani bo'lib, bu esa islom bilimlarini shahar markazlaridan tashqariga chiqarishga va turli xil islom jamoalarini umumiy madaniy loyihada birlashtirishga yordam bergan. Muhammad al–G'azzoliyning ma'naviy–ahloqiy qarashlari ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti–harakatini tartibga solishga, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq–atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi sifatida axloqiy me'yorlar to'g'risidagi bilimlar, o'quvchilar ongiga ta'lim–tarbiya jarayonida singdirilib borish, axloqiy tarbiyaning natijasi o'quvchilarda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy

madaniyatning shakllanishida benihoyat o‘rinli manbadir. Umuman olganda axloqiy ong – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq–atvor qoidalari, mezonlari, shuningdek, milliy mafkuraning o‘quvchilar ongida aks etishiga namoyon bo‘ladi.

Ibn Sino ilmni Allohning qonuniyatlarini anglash vositasi deb ta’riflaydi. U falsafa va tabiiy ilmlarni, tib va mantiqni ham ilohiy bilimga yetaklovchi vositalar sifatida ko‘rgan. Ibn Sino birinchi o‘ringa tibbiyot fanlarini qo‘yadi. Falsafani esa ikki guruhga, ya’ni nazariy va amaliy guruhlariga bo‘ladi. Nazariy guruh kishilarni o‘zidan tashqaridagi borliq holati haqidagi bilimlarni egallashga yo‘llasa, amaliy qism bizga bu dunyoda nimalar qilishimiz kerakligini o‘rgatadi deydi. U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinchi guruhga fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o‘rganuvchi barcha fanlarni kiritadi. Ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma’rifatni egallashga da’vat etadi. Chunki ilm–fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga yetkazishi kerak. Bu maqsadga yetishish uchun inson qiyinchiliklardan qo‘rqmasligi zarur, deydi. “Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo‘rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo‘rqog‘idir”. Zero, ma’rifatli kishi jasur, o‘limdan ham qo‘rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo‘ladi, deydi u fikrini davom ettirib.

Albatta, bilimsiz kishilar johil bo‘ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo‘lmagan kishilar qatoriga qo‘shadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta’kidlaydi. U haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo‘lish kerakligi, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson o‘z bilimining haqiqiyiligini bilishi uchun mantiqni ham bilishi zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning ta’lim metodlari haqidagi ta’limoti asosida ham bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak degan g‘oya yotadi. Ibn Sino bolani maktabda o‘qitish va tarbiyalash zarurligini qayd etib, maktabga barcha kishilarning bolalari tortilishi va birga o‘qitilishi va tarbiyalanishi lozim deb, bolani uy sharoitida yakka o‘qitishga qarshi bo‘lgan. Bolani maktabda jamoa bo‘lib o‘qishini foydasi quyidagicha ifodalangan: Agar o‘quvchi birga o‘qisa u zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir–biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Bularning hammasi o‘qishning yaxshilanishiga yordam beradi. O‘zaro suhbatda o‘quvchilar bir–biriga kitobdan o‘qib olganlari, kattalardan eshitganlarini hikoya qiladilar. Bolalar birga to‘planganlarida bir–birini hurmat qila boshlaydilar, do‘stlashadilar, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda bir–biriga yordamlashadilar, bir–biridan yaxshi odatlarni qabul qiladilar.

Bilim olishda bolalarni maktabda o‘qitish zarurligini qayd etar ekan, ta’limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta’kidlaydi:

– bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo‘ymaslik;

- ta’limda yengildan og’irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo’lishi;
- o’qitishda jamoa bo’lib maktabda o’qitishga e’tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o’qitishni jismoniy mashqlar bilan qo’shib olib borish[4].

Bu talablar hozirgi davr ta’lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir. Yuqoridagi masalalarga o’zining “Tadbiri manzil” asarida maxsus bo’lim bag’ishlaydi. “Bolani maktabda o’qitish va tarbiyalash” bo’limida ta’lim va tarbiya jarayonini ochib beradi. Yuqoridagi tamoyillar esa bolalarni yengil–yelpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishiga yordam beradi[5].

Shunday ulug’allomalardan yana biri Abu Nasr Forobiydir. O’rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman, Yaqin va O’rta Sharq mamlakatlaridagi taraqqiyparvar ijtimoiy–falsafiy tafakkur taraqqiyoti uning nomi bilan bog’liq. U hayotlik vaqtidayoq “Ikkinchi Aristotel”, “Sharq Aristoteli”, “Muallimin as–soniy” (“Birinch muallim”, birinchi ustoz Aristotel bo’lgan) degan faxriy nom olgan edi. Bu uning ilmi va xizmatlariga berilgan yuksak bahodir. Haqiqatdan ham Abu Nasr Forobiy o’rta asr davri ilm–fani taraqqiyotiga katta hissa qo’shgan olim. Forobiy tabiiy, ilmiy va ijtimoiy bilimlarning barcha sohalarida ilmiy ish olib borgan. Forobiy o’zidan keyin juda boy ilmiy meros qoldirgan.

Falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli sohalarida asarlar yaratgan. Forobiy odamlarni turli belgilarga qarab guruhlariga bo’ladi. Bunda u kishilarning diniy mazhabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy xususiyatlari, qobiliyatlari iqtidori, bilim ko’nikmalariga e’tibor berish zarur, deydi. U o’zining “Baxt–saodatga erishuv yo’llari haqida risola” asarida: “Davlatning vazifasi insonlarni baxt–saodatga olib borishdir, – deb yozadi. Buni esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo’lga kiritadi”. Forobiy ta’lim–tarbiyaga bag’ishlangan asarlarida ta’lim–tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim–tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. “Fozil odamlar shahri”, “Baxt–saodatga erishuv to’g’risida”, “Ihso–al–ulum”, “Ilmlarning kelib chiqishi”, “Aql ma’nolari to’g’risida” kabi asarlarida allomaning ijtimoiy–tarbiyaviy qarashlari o’z ifodasini topgan. Forobiy ta’limtarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta’lim bergan bo’lsa ham, ammo har birining insonni kamolga etkazishda o’z o’rni va xususiyati bor ekanligini alohida ta’kidlaydi.[3]

Forobiy “Baxt–saodatga erishuv to’g’risida” asarida bilimlarni o’rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta’kidlashicha, avval bilish zarur bo’lgan ilm o’rganiladi, bu – olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o’rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o’rganish lozim. Undan so’ng, umuman, jonli tabiat o’simlik va hayvonlar haqidagi ilm o’rganiladi, – deydi. Forobiy ta’lim–tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera

oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi. Abu Nasr Forobiy yana aytadi: “Ta’lim – degan soʻz xalqlar va shaharliklar oʻrtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar oʻrtasidagi tugʻma fazilat va amaliy kasbhunar fazilatlarini birlashtirish degan soʻzdir.”[4]

Forobiyning ilmlar tasnifi boʻyicha olib borgan ilmiy–ijodiy ishlari gʻoyatda qimmatlidir. U “Ilmlarning kelib chiqishi haqida” va “Ilmlarning tasnifi haqida” va boshqa risolalarida oʻsha davrda maʼlum boʻlgan 30 ga yaqin ilm sohasining tartibi, tasnifi va tafsilotini beradi. Umuman, Forobiy limning beshta asosiy turkumini koʻrsatadi:

- Til haqidagi ilm (grammatika, poetika, toʻgʻri yozuv va boshqalar. Jami yettita boʻlimdan iborat).
- Mantiq. Sakkizta boʻlimdan iborat,
- Matematika, yetti mustaqil ilm: arifmetika, geometriya, optika, sayyoralar, musiqa, ogʻirlik, mexanika.
- Ilm at–tabiiy va ilm al–iloxiy – tabiiy va ilohiy ilmlar yoki metafizika.
- Siyosat ilmi (ilm al–madaniy, shahar haqidagi ilm, shaharni boshqarish ilmi), yurisprudensiya va musulmon teologiyasi. [5]

Forobiy ilmiy tasnifni nafaqat nazariy jihatdan bayon qilgan, balki uning amaliy ahamiyatini ham taʼkidlagan. U har bir ilm sohasining oʻzaro bogʻliqligini tushuntirib, bilish jarayonini mukammallashtirishga intilgan. Xususan, u mantiqni barcha ilmlar uchun asos deb hisoblagan va uni toʻgʻri fikrlash sanʼati sifatida talqin qilgan. Matematika va tabiiy fanlarga doir qarashlarida esa Forobiy qadimgi yunon olimlari, xususan, Evklid, Ptolemey va Aristotel gʻoyalarini rivojlantirib, ularning islom ilm–faniga moslashtirilishiga katta hissa qoʻshgan. U matematikaning turli tarmoqlari – arifmetika, geometriya, optika va astronomiyaning jamiyat taraqqiyotidagi rolini alohida koʻrsatib bergan. Shuningdek, Forobiyning siyosat ilmi haqidagi qarashlari ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. U “Fozil odamlar shahri” asarida ideal jamiyat modelini ishlab chiqib, uni donishmand hukmdor boshqarishi lozimligini taʼkidlaydi. Uningcha, bunday hukmdor nafaqat siyosiy jihatdan kuchli, balki ilmiy va maʼnaviy jihatdan ham yetuk boʻlishi kerak. Forobiyning ilmiy tasnifi va bilimning jamiyatdagi oʻrni haqidagi qarashlari keyinchalik Yevropa va Islom olamining koʻplab mutafakkirlari tomonidan rivojlantirilgan. Xususan, uning taʼsiri Ibn Sino, Ibn Rushd va Gʻazzoliy kabi olimlarning asarlarida yaqqol koʻrinadi. Forobiyning ilmiy merosi hozirgi kunda ham falsafa, mantiq, matematika va ijtimoiy fanlar rivojiga oʻz taʼsirini oʻtkazib kelmoqda. Uning ilmiy tasnifi nafaqat oʻrta asrlar tafakkuriga, balki zamonaviy bilim paradigmasiga ham muhim asos boʻlib xizmat qiladi. [6]

Buyuk allomalarimizdan yana biri Abu Rayhon Beruniy nafaqat qomusiy olim, balki inson kamoloti masalasida chuqur falsafiy qarashlarga ega boʻlgan mutafakkirdir. Uning taʼlim–tarbiya

haqidagi qarashlari insonning mohiyatini anglash, uni ma'naviy va aqliy jihatdan takomillashtirish g'oyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Beruniy nazarida, inson – bu o'zida bilish qobiliyati, axloqiy mas'uliyat va ijodiy salohiyatni mujassam etgan mavjudotdir. Shuning uchun ham ta'lim jarayoni faqat bilim berish emas, balki insoniylikni shakllantirish, shaxsni “komil inson” maqomiga yetkazish yo'lidagi uzluksiz falsafiy–amaliy harakatdir.

Uning ta'lim va tarbiyani bir butunlikda ko'rish haqidagi qarashi Sharq falsafasida mavjud bo'lgan “ilm – amal birligi” tamoyiliga uyg'undir. Beruniy uchun bilimning qadri, avvalo, uning amaliy hayotga tatbiq etilishida namoyon bo'ladi. Bu jihat Arastu va Forobiy ta'limotlariga hamohang bo'lib, bilimning o'zi emas, balki uning inson axloqi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi ustuvor vazifa sifatida talqin qilinadi[7].

Beruniy kitob o'qish madaniyatiga qo'ygan talablarida ham falsafiy yondashuvni namoyon etadi. U bilimni yuzaki emas, balki mantiqiy tahlil asosida, induktiv va deduktiv metodlarning uyg'unlashuvi orqali egallashni ta'kidlaydi. Bu, aslida, inson tafakkurining dialektik rivojlanish qonuniyatlarini amaliy ta'lim jarayoniga tatbiq etishdir. Unga ko'ra, har bir metodning o'z o'rnini va sharoiti bor; bilimning mukammalligi esa usullarning mazmunli uyg'unligida yuzaga chiqadi.

Beruniy ta'lim jarayonida takrorlash va mustahkamlashni muhim omil deb biladi. Bu yondashuv Platonning “bilim – eslashdir” degan qarashlarini eslatadi. Mufakkir fikricha, inson xotirasining mustahkamligi tafakkur boyligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, tafakkurning kengligi esa inson erkinligi va ijodkorligini ta'minlaydi.

Uning axloqiy talablari ham chuqur falsafiy mohiyatga ega. Haqiqatni tan olish va yolg'ondan qochish haqidagi nasihatlar qadimiy stoitsizm va islom axloqshunosligi tamoyillari bilan uyg'unlashadi. “Haqiqat, hatto sening manfaatlaringga zid bo'lsa ham, uni ayt” degan g'oyasi – axloqiy jasorat va intellektual halollikning oliy mezoni sifatida talqin etiladi.

Beruniy ota–ona va bola o'rtasidagi tarbiyaviy munosabatlarni ham falsafiy asosda ko'radi. Uningcha, bolaning ruhiy va jismoniy kamoloti muvozanat va mo'tadillikka asoslanishi zarur. Bu qarash Sharq tasavvufidagi “i'tidol” g'oyasini eslatib, insonni haddan oshish va yetishmovchilik kabi ikki mutlaq qutbdan asraydi. Beruniy pedagogik merosi nafaqat o'rta asr Sharq ta'lim tizimi uchun, balki hozirgi zamon pedagogikasi va falsafasi uchun ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Uning qarashlari ta'limni insonni anglash, uni ma'naviy–axloqiy va intellektual jihatdan kamolga yetkazishning eng asosiy vositasi sifatida talqin etishga chorlaydi. Bu esa zamonaviy ta'lim falsafasining poydevor g'oyalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Qomusiy olimlardan Muhammad al–Xorazmiy “Al–kitob al–muktasar fi hisob al–jabr val muqobala” asarida olimlarni uch guruhga bo'lib shunday yozadi: “Ulardan biri o'zidan avvalgilarga qilgan ishlarini amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi va uni o'zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qodiradi. Boshqasi o'zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi va bu bilan

qiyinchiliklarni osonlashtiradi, yopiqni ochadi, yo'lni yoritadi va uni tushunarliroq qiladi. Yoki bu ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganni to'playdigan odam bo'lib, u o'zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo'ladi, takabburlik qilmaydi va o'zi qilgan ishidan mag'rurlanmaydi". Bu yerda mutafakkir ilm ahli bo'lmish olimlar to'g'risida so'z yuritir ekanlar bu borada ular uch turli bo'lishini va ular qilgan va boshlagan ishlari bilan yoki boshlangan ishlarni davom ettirishlari bilan bir-birlaridan farqlanishlarini yozganlar[8].

Birinchi olim barcha turdagilardan ko'ra ulardan o'zib ketadi va yangilik yarata oladi demoqdalar. Bu borada u o'zidan keying keluvchilar uchun dasturi amal tayyorlaydi bva ilmini kelajak avlodga me'rops qoldiradi demoqdalar. Bu toifa olimning umri ancha yodda qolarli bo'ladi. Ikkinchi toifa haqida esa o'zidan oldingi olimlarning ilmlarini puxta o'rganib, uni yanada mukammallashtiradi va ochiqlashini aytmqdalar. Bu toifa yangilik yarata olmasada, biroq , bu borada o'zidan oldingi ilm ahlining ishini yanada foydaliroq qiladi va kelajak avlod uchun yanada foydaliroq bo'lishini ta'minlaydi demoqdalar. Uchinchi toifa olimlar nuqsonlar topadilar, sochilganlarni to'playdilar va mag'rurlanmaydilar demoqdalar. Ya'niki ba'zi sohada bir toifa oldingilardan ko'ra kuchliroq bo'lishlarini aytmqdalar. Birovning ishidan nuqson toppish yaxshi emas, lekin, ilmda bu zarur amal. Ilm hech qachon bir joyda qotib turmaydivamudom harakatda. Harakatda bo'lishi uchun esa albatta xat6 va kamchiliklar tuzatilmog'i zarur. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslangan holda didaktika pedagogika tarmog'i. Ta'limni kimlar beradi? Albatta, yetuk mutaxassislar. Xorazmiy davrida olimlar talabalarga o'z sohlari bo'yicha ta'lim berganlar. Bu borada olimlar haqida so'z yuritish o'rinli deb bilaman.

Buyuk mutafakkir ta'lim to'g'risida qayg'urgan. Muhammad al-Xorazmiy insonning kamolga etishi va insoniy munosabatlarni yo'lga qo'yishda ilm-fanning muhim ahamiyati to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan. Ayniqsa, u matematika sohasida yangilik yaratgan nazariyotchi hamda pedagoguslubiyotchi olim sifatida tarixda qolgan. Xorazmiy o'z davrigacha bo'lgan qadimiy matematika fani rivojlangan mamlakatlar – Bobil, Yunoniston, Hindiston, Xitoy, Misrdagi deyarli barcha matematiklarning kashfiyotlarini o'rgandi va o'zi ulardan farq etuvchi yangi kashfiyotlar yaratdi. Ushbu ma'lumot ham yuqorida bildirilgan fikrlarni to'griligini isbotlaydi. Ilm-fan faqatgina bir davrga yokida bir insonga tegishli bo'lmaydi. Shuning uchun pedagogika va didaktikaning o'rni beqiyos. Bu barcha zamonlarda o'z tasdig'ini topgan fakt bo'lib kelgan. Muhammad al-Xorazmiy ta'lim sohasida ham qator ishlarni amalga oshirgan shaxs sifatida tarixda qolgan. Induksiya yo'li bilan umumiy echish usullarini hal etadi, deduksiya yo'li bilan umumiy usullar yordamida xususiy masalalarni echadi. "Aljabr va-l muqobala" asari bilan ham matematika fanini rivojlantirib, o'zidan avvalgi bilmagan usullarni kashf etgan. Bu ishlari bilan ta'lim sohasida yangilik olib kirgan va zamonasi mukammal asar yarata olgan

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Sharq uygʻonish davrining buyuk mutafakkirlari – Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va Abu Homid al-Gʻazzoliy – taʼlim falsafasini nafaqat nazariy jihatdan boyitgan, balki uni amaliy–pedagogik faoliyat orqali rivojlantirgan allomalardir. Ularning qarashlari nafaqat oʻz davrida, balki hozirgi zamon taʼlim konsepsiyalarida ham ilmiy–metodik asos boʻlib xizmat qilmoqda.

Forobiy taʼlimni insonni kamolot sari yetaklaydigan ijtimoiy va maʼnaviy jarayon sifatida talqin etadi. Uning fikricha, inson tabiatan bilim olish qobiliyatiga ega boʻlsa–da, bu salohiyat tarbiya va oʻqitish orqali toʻliq shakllanadi. Forobiy taʼlim jarayonida ikki asosiy usul – ilhomlantirish va majburlash –ni farqlaydi. U oʻqituvchini juda qattiqqoʻl yoki ortiqcha yumshoq boʻlishdan tiyilishga chaqiradi, chunki bu oʻquvchi–ustoz munosabatlarida hurmat va ishonchni saqlash uchun zarur. Bilish jarayonida ishontirish, idrok qilish, oʻrganish, tadqiq qilish, bilish va oʻrgatish kabi metodlar uygʻunligi taʼlim samaradorligini oshiradi.

Ibn Sino taʼlimni inson aqlini mukammal rivojlantirish vositasi deb biladi. oʻzining asarlarida u bolalarni jamoa boʻlib oʻqitishning ustunliklarini asoslab, musobaqalashish, hamkorlik va oʻzaro yordam kabi omillarni koʻrsatadi. Uningcha, taʼlim faqat bilim berish emas, balki axloqiy–estetik tarbiyani ham oʻz ichiga olishi lozim. U maktab dasturiga Qurʼoni Karim, til, axloq, sport va hunarlarni kiritishni tavsiya etadi. Ibn Sino oʻqituvchi faoliyatida asosiy bilimlarni ikkilamchi maʼlumotlardan ajratish, metodlarning xilma–xilligini taʼminlash va oʻquvchining shaxsiy qobiliyatiga mos yondashish zarurligini taʼkidlaydi.

Beruniy taʼlim jarayonida koʻrsatmalilik tamoyilini muhim deb hisoblaydi. Uningcha, ilmiy bilimlar tajriba, kuzatish va dalillarga asoslanishi shart. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida u noaniq maʼlumotlarni tekshirmasdan taqdim etishdan ehtiyot boʻlish kerakligini taʼkidlaydi. Beruniy taʼlimning maqsadini shaxsda mehnatsevarlik, oliyjanoblik va oʻz–oʻzini tarbiyalash sifatlarini shakllantirishda koʻradi. Tarbiya jarayonida ragʻbatlantirish va etik–estetik suhbat metodlarini birinchi oʻringa qoʻyadi.

Gʻazzoliy taʼlimni nafaqat ilmiy, balki maʼnaviy va axloqiy poklanish jarayoni sifatida talqin etadi. “Ihyou ulumiddin” va “Mukoshafat ul–qulub” kabi asarlarida u ilmning maqsadi Allohga yaqinlashish, qalbni poklash va jamiyatga foyda keltirish ekanini taʼkidlaydi. Gʻazzoliy uchun haqiqiy taʼlim – bu ilm va amalning birligi boʻlib, oʻqituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki axloqiy namuna boʻlishi kerak. U dunyoviy va diniy ilmlarning uygʻunligini yoqlab, inson kamoloti uchun ikkisini ham zarur deb biladi.

Al–Xorazmiy ilm olish jarayonida mantiqiy izchillik, aniq dalillarga tayanish va tajriba orqali tekshirish tamoyillarini ilgari surgan. U ilmni faqat nazariy bilim sifatida emas, balki amaliy hayotda foyda keltiruvchi vosita sifatida talqin etgan. Qadimiy Xorazmiylar taʼlim falsafasi bilan Muhammad al–Xorazmiyning ilmiy yondashuvlari bir–birini toʻldiradi: birinchisi – ijtimoiy–

axloqiy va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ikkinchisi – ilmiy tafakkur va matematik mantiqni shakllantirishga asos bo‘lgan. Bu uyg‘unlik Sharq ta‘lim an‘analarini boyitib, keyingi davrlarda Beruniy, Ibn Sino kabi allomalar faoliyatiga kuchli ta‘sir ko‘rsatdi.

Shulardan kelib chiqib, allomalar qarashlari quyidagi umumiy g‘oyalarda birlashadi:

- Insonning tabiiy qobiliyatini ochish – ta‘limning bosh maqsadi sifatida.
- Axloqiy tarbiya va ma‘naviyat – bilim berish bilan teng ahamiyatga ega.
- O‘qituvchi shaxsiy namunasi – ta‘lim samaradorligining muhim omili.
- Ilmiy asoslanganlik va amaliyotga bog‘liqlik – bilimning chinakam qiymatini belgilaydi.
- Jamoaviy o‘qitish va hamkorlik – ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish vositasi.

Bugungi kunda bu qarashlar zamonaviy ta‘lim falsafasining ko‘plab tamoyillari bilan uyg‘unlashadi. Jumladan, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kompetensiyaga asoslangan ta‘lim, o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligi, uzluksiz ta‘lim konsepsiyasi kabi g‘oyalar Sharq allomalari merosida o‘z tarixiy ildiziga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”.
Sh.M. Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: O‘zbekiston, 2016. – 14 b.
2. Shermuxamedova N.A. Falsafa. – Toshkent, 2010. – B. 574.
3. Abu Homid G‘azzoliy “Ayyuhal valad” asarining o‘zbek tilidagi tarjimasi (qayta nashr) T.: Movarounnahr 2005 yil.
4. T.B.Norimbetov. Tasavvufda komil inson masalasi. (Milliy va ma‘naviy qadryatlarning yuksalishida ayollarning o‘rni) Тошкент; TIU ning maqolalar to‘plami. 2016–yil. 312– bet.
5. M.M.Xayrullayev “Forobiy va uning falsafiy risolalari”. T–1963. 277–b.
6. Rosenthal, Franz. Knowledge Triumphant: “The Concept of Knowledge in Medieval Islam”. Brill–2007.
7. M. Qurbonov. Ijtimoiy pedagogika. –Toshkent,2003,41–b.
8. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES,3